Volume 2, Issue 1

BIOLOGIYA O‘QITISH METODIKASINING BOSHQA FANLAR BILAN BOG‘LIQLIGI


Abdullayeva Muhlisa G‘anijon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti biologiya yo‘nalishi 302-guruh talabasi

Annotatsiya: Har qanday fan insonning tadqiqot faoliyati bilan aloqador bo‘lib, u narsa va xodisalar to‘g‘risida bilimlar to‘plashga yo‘nalgan, hamda tadqiqot qilinayotgan narsa xodisalar to‘g‘risida to‘liq va chuqur bilim olishga qaratilgan. Fanning asosiy funksiyasi tadqiqot hisoblanadi.
Annotation: Any science is related to the research activity of a person, it is aimed at gathering knowledge about things and phenomena, and the object of research is aimed at obtaining complete and deep knowledge about the phenomena. The main function of science is research.
Kalit so‘zlar: Biologiya, biologiyani o‘qitish metodikasi, tajriba, tadqiqot, psixologiya, zamonaviy metodlar va o‘quvchilarni qiziqtirish usullari.
Key words: Biology, methodology of teaching biology, experience, research, psychology, modern methods and ways to interest students.

Biologiya o’qitish metodikasi pedagogikaning bir qismi bo’lgan didaktika bilan juda yaqin aloqadadir. Agar didaktika o’quvchilar tomonidan bilimlar, ko’nikmalar va malakalarni o’zlashtirish qonunlarni o’rgansa va u maktabdagi barcha o’quv fanlari uchun o’qitish nazariyalarni va printsiplarini ishlab chiqsa, biologiya o’qitish metodikasi biologiya bilan bog’liq o’qitish va tarbiyalash mazmuni, shakllari, va metodlari hamda vositalari bilan bog’liq nazariy va amaliy masalalarni ishlab chiqadi. Biologiya o’qitish metodikasi biologiya fani bilan uzviy aloqador. U biologik fanlarning deyarli barcha soxalari: botanika, zoologiya, odam anatomiyasi va fiziologiyasi, sitologiya, biokimyo, embriologiya, sistematika, ekologiya, evolyutsion ta’limot, antropologiya, molekulyar biologiya fan asoslarini o’zida ifoda qiladi.

Biologiya o’qitish metodikasi psixologiya bilan uzviy aloqadadir. Chunki, biologiyani o’qitish o’quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo’lgan taqdirdagina samara beradi. Masalan o’smirlarda ya’ni Vl-VIl sinf o’quvchilarida diqqat beqaror bo’lgani sababli biologiya o’qituvchisi dars jarayonida bir necha metodlardan foydalanib, o’quvchilar faoliyatini almashtirib ularni fanga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirish, hamda ularning tafakkurini e’tiborga olib ko’rgazmali vositalardan ko’proq foydalaniladi. Biologiyani psixologiya 3 bog‘liqligi shundaki, o‘quvchilarni o‘ziga jalb qilish, fanga turli metodlar orqali qiziqtirish va ularning bilimlarini mustahlashda o‘z aksini topadi.

Tirik tabiat vakillarining tashqi, ichki tuzilishini hayot faoliyatini tashqi muhit bilan aloqasini to‘g‘ri tushuntirish o‘simlik, zamburug‘, hayvon, mikroorganizmlarni aniqlash, ulardan mikro va makropreparatlar tayyorlash, ular ustida kuzatish, tajribalar olib borish, o‘qituvchidan yaxshi nazariy bilim, amaliy tayyorgarlikni talab qiladi. Shuning uchun, hozirgi kunda talimga juda katta e’tibor berilmoqda.



1-rasm [6]

O‘qituvchilarni ham yetishtirib chiqarishda ularga zamanaviy turli metodlar va ko‘nikmalar berilmoqda. Hatto o‘qituvchilarni ishga qabul qilishda ham ularni turli metodlarni qo‘llay olishi va bilimini sinovdan o‘tkazib so’ng ishga qabul qilish tartibi yo‘lga qo‘yildi. Bu raqobatni yanada kuchayishiga va bilimli, malakali o‘qituvchilarni ko‘payishiga olib kelyapti. Yosh pedagoglar shu boisdan yanada ko‘proq bilim olishga harakat qilishayapdi. Sog‘lom raqobat kuchaygan sari rivojlanish ham kuchayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet saytlar:

1. Biologiyani o‘qitish metodikasi o‘quv qo‘llanma
2. J. O. Tolipova, A.T G’ofurov. Biologiya o’qitish metodikasi. T., 2004 yil.
3. .A.T. G’ofurov va boshqalar. Biologiya o’qitishning umumiy metodikasi. T., 2005 yil.
4. fayllar.org
5. azkurs.org
6. biologiya.edu.uz
7. pedagoglar.uz